




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib




Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **4667,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan **6,9** % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **424,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **105,3** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **4242,9** mlrd. so'mni (**8,0** % ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **444,3** mlrd. so'mni (**32,2** % ga kamaydi) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






**HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm**

UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **4667,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan **93,1** % ni tashkil etdi.




Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **90,9** % va yirik korxonalar hissasiga **9,1** % to'g'ri keldi.



ENG YUQORI ULUSH

Viloyatda chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumani **22,4** % ulush bilan **1044,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.





ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Bandixon tumani **0,3** % ulush bilan **12,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.



**YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, **4667,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan **6,9 %** ga kamaygan. Jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **93,1 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Denov (99,2 %), Uzun (95,4 %), Qumqo'rg'on (95,3 %), Termiz sh (95,2 %), Bandixon (95,1 %), Sherobod (95,0 %), Oltinsoy (93,5 %) va Sho'rchi tumanlarida (91,8 %) yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Denov (99,2 %), Uzun (95,4 %) tumanlarida va Termiz shahrida (95,2 %) qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	4 667,3	93,1	424,4	105,3	4 242,9	92,0
Termiz shahri	923,6	95,2	266,2	95,0	657,4	95,2
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	244,3	93,5	8,4	159,6	235,9	92,2
Angor	187,6	91,3	6,7	97,3	180,9	91,1
Bandixon	12,9	95,1	0,6	-	12,3	90,9
Boysun	194,7	88,0	5,7	74,0	188,9	88,5
Muzrabot	247,5	82,1	3,0	309,8	244,5	81,4
Denov	1 044,8	99,2	49,3	197,7	995,5	96,8
Jarqo'rg'on	258,8	89,7	14,7	112,6	244,1	88,7
Qumqo'rg'on	207,9	95,3	5,7	76,6	202,2	96,0
Qiziriq	208,4	83,4	5,1	78,8	203,3	83,6
Sariosiyo	210,3	90,8	12,0	152,4	198,3	88,7
Termiz	103,4	88,6	14,3	78,9	89,1	90,2
Uzun	169,2	95,4	3,4	200,9	165,8	94,4
Sherobod	241,3	95,0	8,6	85,5	232,7	95,4
Sho'rchi	412,6	91,8	20,7	165,9	391,9	89,7

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **5,3 %** ga o'sdi va **424,4** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **9,1 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **4 242,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **8,0 %** ga kamaydi. Viloyat miqosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **90,9 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Muzrabort (98,8 %), Uzun (98,0 %), Qiziriq (97,6 %), Qumqo'rg'on (97,3%), Boysun (97,1 %) va Oltinsoy (96,5 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 9,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (28,8 %), Termiz (13,8 %), Sariosiyo (5,7 %) va Jarqo'rg'on (5,7 %) tumanlarida kuzatildi.



**SURXONDARYO VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON
BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yil yanvar-may oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1 771,4** ming so'm (2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan **9,0** % ga kamaydi) va Denov (96,8 %) hamda Qumqo'rg'on (96,2 %), Uzun (93,3 %), Sherobod (92,8 %), Oltinsoy (91,3 %), Sho'rchi (89,6 %), tumanlari va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Termiz shahri (5 128,5 ming so'm), Denov (2 710,4 ming so'm) va Sho'rchi (1 975,3 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	1 771,4	91,0
Termiz sh.	5 128,5	76,8
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	1 382,0	87,8
Angor	1 414,5	89,3
Bandixon	179,2	88,3
Boysun	1 675,4	89,0
Muzrabot	1 746,7	88,9
Denov	2 710,4	88,4
Jarqo'rg'on	1 185,7	91,5
Qumqo'rg'on	880,2	88,4
Qiziriq	1 822,9	88,0
Sariosiyo	1 016,9	89,1
Termiz	1 337,0	87,7
Uzun	968,6	81,4
Sherobod	1 245,7	87,5
Sho'rchi	1 975,3	89,6

**UYUSHMAGAN SAVDO
TOVAR AYLANMASI**

Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-may oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **444,3** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan **32,2** % ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **204,4** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **79,2** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **239,9** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **60,4** %) tashkil etdi.

**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-may oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **204,4** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **239,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	444,3	67,8	204,4	79,2	239,9	60,4
Termiz sh.	22,7	88,3	22,7	88,3	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	44,3	80,8	17,3	78,1	26,9	82,7
Angor	19,2	61,7	9,8	72,3	9,4	53,6
Bandixon	0,4	52,3	0,4	52,3	-	-
Boysun	31,9	63,5	13,5	77,3	18,4	56,2
Muzrabot	78,6	61,1	9,6	60,8	69,0	61,1
Denov	60,9	78,5	54,5	79,7	6,4	69,5
Jarqo'rg'on	31,2	64,1	15,8	79,5	15,4	53,4
Qumqo'rg'on	24,5	100,3	20,1	113,5	4,4	65,4
Qiziriq	38,4	55,2	4,5	49,4	34,0	56,2
Sariosiyo	30,1	61,4	7,9	68,5	22,2	59,2
Termiz	3,3	56,8	0,3	68,0	3,0	56,1
Uzun	17,1	81,4	9,9	91,5	7,2	70,6
Sherobod	10,6	82,0	9,5	87,7	1,1	52,9
Sho'rchi	31,1	56,2	8,6	61,6	22,5	54,4

**UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI:
DEHQON BOZORLARI**



6,5
mlrd. so'm

Tuzlamalar



73,0
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



15,8
mlrd. so'm

**Qurilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**

(yong'oq, bodom, pista va boshqalarni qo'shgan holda)

22,1
mlrd. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



9,7
mlrd. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

5,4
mlrd. so'm



Tuxum

47,0
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)**

7,6
mlrd. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar**

3,6
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)**

2020- yilning yanvar-may oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **204,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**73,0** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

3,7
mlrd. so'm



Ziravorlar

10,0
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2020- yilning yanvar-may oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **239,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **197,7** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **39,0** mlrd. so'mni, otlar **2,2** mlrd. so'mni, parrandalar **1,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**


2020- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,4 %** ni tashkil etib, **65,0** mlrd. so'mga yetdi va 2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan **30,2 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **84,9 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	65,0	69,8	9,8	15,1	55,2	65,7
Termiz sh.	21,5	64,7	0,5	2,2	21,0	66,9
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	1,7	68,6	-	-	1,7	68,6
Angor	2,5	67,8	-	-	2,5	67,8
Bandixon	0,1	28,7	-	-	0,1	28,7
Boysun	1,6	65,0	-	-	1,6	65,0
Muzrabot	1,3	61,2	-	-	1,3	61,2
Denov	7,3	61,5	-	-	7,3	61,5
Jarqo'rg'on	2,1	56,9	-	-	2,1	56,9
Qumqo'rg'on	1,9	64,3	-	-	1,9	64,3
Qiziriq	1,3	61,9	-	-	1,3	61,9
Sariosiyo	11,0	112,8	8,9	81,1	2,1	66,5
Termiz	4,8	73,1	0,4	8,0	4,4	68,5
Uzun	1,6	62,2	-	-	1,6	62,2
Sherobod	3,2	67,1	-	-	3,2	67,1
Sho'rchi	3,3	67,9	-	-	3,3	67,9

**MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY
OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI**




2019- yil yanvar-may oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami tovar aylanmasidagi ulushi **0,3 %** dan **0,2 %** ga kamaygan.

Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi **65,0** mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 69,8 %) va mulkchilik shakllari bo'yicha **64,9** mlrd. so'm nodavlat mulkka (99,8 %) hamda **0,1** mlrd. so'm (0,2 %) davlat mulkiga to'g'ri keldi. Eng yuqori davlat ulushi Toshkent shahriga (90,0 %) to'g'ri keldi.

	Jami, mln. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
Surxondaryo viloyati	65 013,2	100,0	64 908,2	99,8	105,0	0,2
Termiz sh.	21 493,6	33,1	21 388,6	99,5	105,0	0,5
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	1 680,5	2,6	1 680,5	100,0	-	-
Angor	2 539,1	3,9	2 539,1	100,0	-	-
Bandixon	54,1	0,1	54,1	100,0	-	-
Boysun	1 552,6	2,4	1 552,6	100,0	-	-
Muzrabot	1 256,1	1,9	1 256,1	100,0	-	-
Denov	7 278,4	11,2	7 278,4	100,0	-	-
Jarqo'rg'on	2 149,0	3,3	2 149,0	100,0	-	-
Qumqo'rg'on	1 900,0	2,9	1 900,0	100,0	-	-
Qiziriq	1 282,3	2,0	1 282,3	100,0	-	-
Sariosiyo	11 015,6	16,9	11 015,6	100,0	-	-
Termiz	4 779,3	7,4	4 779,3	100,0	-	-
Uzun	1 559,5	2,4	1 559,5	100,0	-	-
Sherobod	3 201,8	4,9	3 201,8	100,0	-	-
Sho'rchi	3 271,3	5,0	3 271,3	100,0	-	-

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar




Mikrofirma va kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1134,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan **3 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **420,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **116,6 %**), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **714,5** mlrd. so'mni (**11,8 %** ga kamayish), shundan mikrofirmalar savdo tovar aylanmasi **589,5** mlrd. so'mni (**12,4 %** ga kamayish) va kichik korxonalar savdo tovar aylanmasi **125,0** mlrd. so'mni (**7,7 %** ga kamayish) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Qumqo'rg'on (3,3 m) va Sariosiyo (2,2 m), Jarqo'rg'on tumanlarida (132,8 %) kuzatildi.



Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	1134,7	97,0	420,2	116,6	714,5	88,2
Termiz sh.	199,8	89,0	77,9	89,7	121,9	88,5
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	61,9	98,2	22,6	121,6	39,3	88,5
Angor	53,8	80,6	4,9	44,4	49,0	87,8
Bandixon	5,1	3,0 m	3,7	-	1,4	80,7
Boysun	12,8	87,3	0,5	89,5	12,3	87,2
Muzrabot	34,9	74,2	28,0	71,6	6,9	87,1
Denov	154,9	98,1	51,8	117,9	103,1	90,5
Jarqo'rg'on	115,7	109,7	67,0	132,8	48,7	88,5
Qumqo'rg'on	112,5	2,6 m	101,9	3,3 m	10,6	88,7
Qiziriq	37,0	71,9	13,0	54,0	24,0	87,6
Sariosiyo	63,2	103,8	14,7	2,2 m	48,5	89,3
Termiz	102,4	83,7	4,4	45,8	98,0	86,9
Uzun	51,4	84,3	3,7	60,7	47,7	86,9
Sherobod	97,1	83,6	14,2	66,5	82,9	87,5
Sho'rchi	31,9	93,6	11,7	105,6	20,2	87,9



**YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES
SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO
TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda**



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, **1 134,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan **3,0** % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **63,0** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Boysun (95,8 %), Termiz (95,7 %), Uzun (92,8 %), Angor (90,9 %) va Sherobod (85,3 %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Qumqo'rg'on (9,4 %) viloyatiga to'g'ri keldi.

